

BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY NATIJALARNI TAHLIL QILISHDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

AZAMOV AFZALBEK YORQINJON O‘G‘LI

ANDIJON DAVLAT TEXNIKA INSTITUTI

BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITI

YO‘NALISHI 4-BOSQICH

K-114-21-GURUH TALABASI

afzalbekazam@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada byudjet tashkilotlarida moliyaviy natijalarni tahlil qilishda uchrayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari yoritilgan. Amaliyotda tahlil jarayonlarining soddalashtirilganligi, zamonaviy yondashuvlarning yetarlicha qo‘llanilmasligi, axborot texnologiyalarining cheklanganligi va xodimlar malakasining pastligi kabi omillar tahlil sifati va samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani qayd etilgan. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida moliyaviy tahlil sifatini oshirishga doir takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Bozor iqtisodiyoti moliyaviy natijalar, byudjet tashkiloti, tahlil, samaradorlik, davlat moliyasi, raqamlashtirish, xalqaro tajriba, GFMIS, dBrain, audit.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash va ularning faoliyat samaradorligini oshirishda moliyaviy natijalarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy tahlil, bir tomondan, tashkilotning mavjud moliyaviy holatini baholashga, ikkinchi tomondan esa kelajakdagi moliyaviy rejalashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Moliyaviy natijalar - bu xo‘jalik subyektlarida ma’lum bir hisobot davrida xo‘jalik jarayoni natijasida o‘ziga qarashli mablag‘larni oshishi yoki kamayishidir. Moliyaviy natijalar tashkilot faoliyatining iqtisodiy samaradorligini ifodalaydi va ular ijobiy (foyda) yoki salbiy (zarar) bo‘lishi mumkin. Byudjet tashkilotlari kontekstida esa bu tushuncha biroz o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Byudjet tashkilotlarida moliyaviy natija deganda, odatda tashkilotning barcha tushumlari (shu jumladan, byudjet mablag‘lari hisobidan g‘aznachilik orqali amalga oshirilgan kassa xarajatlari) va hisoblangan real xarajatlari o‘rtasidagi farq tushuniladi. Ushbu farq natijasida hosil bo‘lgan ko‘rsatkich tashkilotning aktivlaridagi sof o‘zgarishni aks ettiradi¹. Boshqacha aytganda, byudjet tashkilotining moliyaviy natijasi – bu tashkilot balansidagi barcha aktivlar (jumladan, nomoliyaviy aktivlar, moliyaviy aktivlar, debitorlik qarzlari)dan

¹ M.Y. Raximov, N.N. Kalandarova "Moliyaviy hisobotlar va ularning tahlili" darslik 2019-yil

uning majburiyatlari (asosiy ravishda kreditorlik qarzlar) ayirilgandagi qiymat bo‘lib, bu ko‘rsatkich tashkilotning sof moliyaviy holatini tavsiflaydi.

Ammo amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirgi kunda byudjet tashkilotlarida moliyaviy natijalarni tahlil qilish jarayonida ba’zi muammolar mavjud. Ular orasida moliyaviy axborotlarning yetarlicha aniq va tizimli yuritilmasligi, tahlil usullarining eskirganligi, kadrlar malakasining yetarli emasligi kabi omillar ajralib turadi. Bu esa moliyaviy natijalarga asoslangan to‘g‘ri qarorlar qabul qilishni qiyinlashtiradi.

Hozirgi kunda respublika byudjet tashkilotlarida moliyaviy hisob va hisobotlarni yuritishda “Uzasbo” (UzasBO – O‘zbekiston avtomatlashtirilgan byudjet tizimi) dasturiy platformasidan keng foydalanilmoqda. Mazkur tizim orqali asosiy buxgalteriya hujjatlari, xarajat smetalari, to‘lov topshiriqlari va operatsion hisobotlar yuritiladi. Shu bilan birga, amaliyotda kuzatilayotgan holatlar shuni ko‘rsatmoqdaki, “Uzasbo” tizimi asosan buxgalteriya hisobining yuritilishini ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, moliyaviy natijalarni chuqur tahlil qilish, ularni vizual ko‘rinishda aks ettirish, samaradorlikni tizimli baholash kabi funktsiyalarni to‘laqonli bajara olmaydi. Natijada, bu tizimdan foydalanish moliyaviy boshqaruv qarorlarini asoslash uchun yetarli tahliliy asos yaratmaydi.

Bundan tashqari, “Uzasbo” tizimi orqali shakllantirilgan ma’lumotlar tashkilot ichidagi turli bo‘limlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzatilmaydi, ya’ni bu tizim umumlashtirilgan va integratsiyalashgan axborot platformasi emas. Rejalashtirish, buxgalteriya, audit va moliyaviy tahlil bo‘limlari o‘rtasida ma’lumot almashinuvi asosan qo‘lda yoki alohida elektron fayllar orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa nafaqat vaqt va resurslarning ortiqcha sarf bo‘lishiga olib keladi, balki ma’lumotlar tafovutiga sabab bo‘lib, umumiy moliyaviy ko‘rinishni shakllantirishda noaniqliklar paydo qiladi.

Ko‘plab tashkilotlarda moliyaviy tahlil faqat asosiy xarajatlar, smeta ijrosi va o‘zlashtirilgan mablag‘lar hajmini aniqlash bilan cheklanmoqda. Daromad va xarajatlar dinamikasi, ularning tarkibiy tuzilishi, xarajatlarning maqsadga muvofiqligi, xarajatlar samaradorligi, moliyaviy oqimlarning barqarorligi kabi chuqur tahlil talab qiladigan ko‘rsatkichlar amaliyotda yetarli darajada qo‘llanilmayapti. Bu esa, o‘z navbatida, tashkilotlarning moliyaviy holatini chuqur baholash imkonini bermaydi.

Moliyaviy hisobotlarni yuritish va ularni tahlil qilish ko‘plab tashkilotlarda faqat hisob-kitoblarni to‘g‘ri olib borish, smetani to‘g‘ri to‘ldirish yoki yil yakuni bo‘yicha mablag‘larni sarflanishini hujjatlashtirish bilan cheklanadi. Ko‘plab hollarda, bu vazifalarni bajarayotgan mutaxassislar moliyaviy ko‘rsatkichlarning iqtisodiy mazmunini chuqur anglamagan bo‘ladi. Ayniqsa, moliyaviy tahlil natijalariga asoslangan strategik qarorlarni ishlab chiqish, moliyaviy natijalarning xizmat ko‘rsatish sifatiga ta’sirini aniqlash, samaradorlik indikatorlarini tushunish va baholash ko‘nikmalari ko‘pchilik xodimlarda yetarli emas.

Bundan tashqari, davlat moliyasi, byudjet nazorati va davlat xaridlari sohalarida zamonaviy metodikalar, axborot tizimlari va xalqaro tajribalardan bexabar bo'lgan xodimlar faoliyat yuritayotgan tashkilotlarda moliyaviy tahlil sifati past bo'ladi. Bunday holatlarda, hatto mavjud bo'lgan tahliliy ko'rsatkichlar ham formal yondashuv asosida to'ldiriladi, real holatni aks ettirmaydi va faqat shakl uchun bajarilgan hisobotga aylanib qoladi.


Kadrlar malakasining pastligi, bir tomondan, doimiy amaliy malaka oshirish tizimining yo'qligi yoki zaifligi, ikkinchi tomondan esa, rahbarlar darajasida tahlilga bo'lgan ehtiyojning pastligi bilan bog'liq. Chunki rahbariyatning moliyaviy natijalarni tahlil qilishga bo'lgan talab va e'tibori yuqori bo'lmaganda, xodimlar ham bu boradagi bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirishga intilmaydi.

Umuman olganda, moliyaviy tahlilning chuqur va sifatli olib borilishi uchun kadrlarning malakasini muntazam oshirish, zamonaviy tahliliy yondashuvlar va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni o'rgatish, xodimlarning iqtisodiy fikrlash va tahliliy qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Buning uchun maxsus o'quv dasturlari, malaka oshirish kurslari, vebinar va seminarlar tashkil qilish muhim sanaladi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda tashkilotlarga amaliyotchi-talabalarni jalb etish orqali zamonaviy bilimlarni tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish ham zamonaviy moliyaviy tahlil yondashuvlaridan biridir. Big Data, sun'iy intellekt (AI), ma'lumotlar tahlili va bulutli texnologiyalar orqali davlat moliyasining samaradorligi yanada oshadi. Ushbu texnologiyalar yordamida moliyaviy axborotlar to'plami avtomatik tarzda tahlil qilinadi va qarorlar real vaqt rejimida qabul qilinadi. Bu nafaqat moliyaviy resurslarni tejash, balki ulardan maqsadli va samarali foydalanish imkonini beradi.

Bundan tashqari, integratsiyalashgan moliyaviy boshqaruv tizimlari (masalan, GFMIS) orqali davlat byudjeti va moliyaviy jarayonlarni yagona platforma orqali boshqarish mumkin. Ushbu tizimlar yordamida barcha byudjet jarayonlari — rejalashtirish, xarajat qilish, hisobot berish — o'zaro bog'lanib, yagona va tizimli platformada amalga oshiriladi. Bu esa moliyaviy ma'lumotlarni tez va aniq olish imkoniyatini beradi, shuningdek, moliyaviy resurslarni boshqarishda xatoliklarni kamaytiradi.

Moliyaviy natijalarni hisobga olish va tahlil qilish bo'yicha ilg'or tajribalarga ega bo'lgan rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, samarali moliyaviy boshqaruvning asosi — ochiqlik, natijadorlik va javobgarlik tamoyillariga asoslangan yondashuvdir. Bunday davlatlarda moliyaviy tahlil va byudjet jarayonlari xalqaro standartlarga muvofiq tarzda tashkil etilgan bo'lib, bu orqali byudjet tashkilotlarining faoliyati muntazam monitoring qilinadi hamda natijalarga asoslangan qarorlar qabul qilinadi.



1-rasm. Rivojlangan davlatlarda byudjet tahlilida qo'llaniladigan texnologik vositalar ulushi²

Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarida moliyaviy samaradorlikni oshirish maqsadida 1993-yilda "Government Performance and Results Act" (GPRA) qabul qilingan. Ushbu qonunga muvofiq, barcha federal agentliklar o'z faoliyatining aniq maqsadlarini belgilab, har yili natijalarga asoslangan hisobot taqdim etishlari talab etiladi. Bundan tashqari, AQSHda performance.gov nomli maxsus onlayn platforma mavjud bo'lib, u orqali jamoatchilik davlat agentliklarining faoliyat ko'rsatkichlarini kuzatishi mumkin. Bu esa fuqarolarning byudjet mablag'laridan foydalanish bo'yicha axborotga bo'lgan ochiqligini ta'minlaydi.

Buyuk Britaniyada esa byudjet tizimi samaradorlik, shaffoflik va javobgarlik tamoyillariga asoslanadi. HM Treasury tomonidan ishlab chiqilgan "Public Spending Framework" doirasida barcha davlat tashkilotlari uchun aniq moliyaviy ko'rsatkichlar belgilanadi hamda bu ko'rsatkichlarga erishish darajasi asosida baholash amalga oshiriladi. Shuningdek, Buyuk Britaniyada mustaqil audit tashkiloti — National Audit Office (NAO) mavjud bo'lib, u davlat tashkilotlari faoliyatini samaradorlik va natijadorlik nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Ushbu model davlat mablag'larining oqilona sarflanishi va ortiqcha xarajatlarning oldini olishga xizmat qiladi³.

Janubiy Koreyada esa raqamlashtirilgan byudjet tizimi — dBrain (Digital Budget and Accounting System) amaliyoti mavjud. Ushbu tizim barcha byudjet tashkilotlarining moliyaviy ma'lumotlarini yagona raqamli platformada jamlaydi va ularni real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beradi. dBrain tizimi orqali har bir moliyaviy operatsiya to'liq elektron tarzda qayd etiladi va barcha ma'lumotlar hukumat, parlament hamda jamoatchilik uchun ochiq bo'ladi. Bu yondashuv

²Jahon banki, "International Monetary Fund" va "Organisation for Economic Co-operation and Development" ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

³ HM Treasury & Cabinet Office. (2021). The government's planning and performance framework. (Available via GOV.UK).

korruptsiyaviy holatlarni kamaytirish, resurslardan maqsadli foydalanishni kuchaytirish va moliyaviy intizomni ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda⁴.

Yuqoridagi davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, samarali moliyaviy tahlil va hisob yuritish jarayonlari uchun faqat texnik vositalar emas, balki institutsional va qonunchilik islohotlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat moliyasini ochiq, samarali va natijaga yo'naltirilgan tarzda boshqarish bo'yicha xalqaro tajriba O'zbekiston uchun ham amaliy jihatdan dolzarbdir. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, natijadorlikka asoslangan baholash tizimini shakllantirish va fuqarolarning byudjet jarayonlarida ishtirokini kengaytirish mamlakatimizda moliyaviy tahlil samaradorligini oshirishda asosiy omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSA

Byudjet tashkilotlarida moliyaviy natijalarni tahlil qilishda mavjud muammolar moliyaviy boshqaruv samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ularni bartaraf etish uchun zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, xodimlar malakasini oshirish hamda xalqaro tajribalardan foydalanish muhim hisoblanadi. Moliyaviy tahlil jarayonini takomillashtirish davlat resurslaridan oqilona foydalanish va natijadorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.Y. Raximov, N.N. Kalandarova "Moliyaviy hisobotlar va ularning tahlili" darslik 2019-yil
2. HM Treasury & Cabinet Office. (2021). The government's planning and performance framework. (Available via GOV.UK).
3. Korea Fiscal Information Service. (n.d.). Digital Budget and Accounting System (dBrain). Retrieved June 9, 2025, from
4. World Bank <https://www.worldbank.org> World Bank

⁴ Korea Fiscal Information Service. (n.d.). Digital Budget and Accounting System (dBrain). Retrieved June 9, 2025, from